

**TERRORIZMNING KELIB CHIQISHI VA UNING OLDINI OLISHDA  
XALQARO VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI***Aytimbetov Utkir Pulatovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada terrorizmning kelib chiqishi va ularning rivojlanish tarixi, uning oldini olishda choralarini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammo va kamchiliklar hamda ularni yechimi to'g'risida ma'lumotlar hamda xalqaro va O'zbekiston tajribalari haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, diniy qarashlar, terrorizm, musulmon birodarlar, o'zbek modeli, ekstremizm, mafkuraviy.

Hozirgi zamon axborot texnologiya davri hisoblanib, xohlagan ma'lumotlaringizni bir soniyada topishingiz mumkin va bu odatiy holga aylanmoqda. Shu bilan birgalikda o'zlarining g'arazli yo'lda foydalanayotgan odamlar ham mavjud. Bular o'zlarini "Allohning quli" va islomdagi barcha talablarga javob beradigan inson qilib va shu singari jarangdor so'zlarni ishlatib insonlarni o'z domiga tortib ketmoqda. Ular dinni niqob qilib o'zlarining ekstremistik g'oyalarini singdirib dunyo yuziga xavf tug'dirmoqda.

Manbalarda keltirilishicha diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793–1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida iste'molga kiritilgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan va hukmdorlar tomonidan xalqqa nisbatan zulm oshib ketganda unga qarshi kurash ifodasi sanalgan. Shunday bo'lsada ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va tarqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etib o'tish lozim.

Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblagan holda, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan "rahnamolarning" asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Ularning asosiy niyati butun Osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligin barpo etish kerak deb kurashmoqdalar. Lekin, ularning asosiy niyati shu bilangina cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib olib hokimiyatni qo'lga olish, bu yo'lda „inson“ deb atalmish buyuk jonzotni o'ldirishdan ham tab tortmayapti. Ular hozirgi kunda, ayni daqiqada ham o'z yovuz, jirkanch ishlarni turli davlatlarda amalga oshirmoqdalar.

So'nggi o'n yilliklarda butun dunyo ekstremizm mafkurasi va amaliyoti muammosiga duch keldi. Ekstremistik mafkura yoshlarga ma'lumot yetkazishning eng

qulay kanallaridan faol foydalanishi va yoshlar submadaniyatiga<sup>1</sup> osonlikcha kirib borishi, barcha “begona”larni yo‘q qilish yoki zararsizlantirish bo‘yicha ekstremal chora-tadbirlar orqali maqsadlarga erishish uchun juda oddiy va “radikal” yechimlarni taklif qilishi alohida xavf tug‘diradi”. Afsuski, yoshlar tomonidan ekstremistik deb topilgan jinoyatlar ko‘payib bormoqda.

Yoshlar orasida ekstremizm va terrorizmning rivojlanishi sabablari sifatida quyidagilarni olsak bo‘ladi.

1. Yoshlarning yoshlik xususiyati hisoblanadi. Chunki ularda o‘shish davomida o‘zlarining organizimida garmonlar almashishi va shu bilan birgalikda ularni hali yoshlik qilishini yuziga solishimiz natijasida ularning kattalardan ko‘ngli sovishi va ushbu holatdan o‘zining g‘arazli niyatlarini amalga oshiruvchi shaxslar ularni kamsitmasdan balki maqtovlar orqali ularning ichiga kirib “yaqin do‘sti” bo‘lib olishmoqda va shu orqali o‘zlarining radikal g‘oyalarini bosqichma-bosqich kiritib bormoqda;

2. Istaklarning beqarorligi, maqsadlarning noaniqligi, norozilikka toqat qilmasligi kabi holatlar mavjudligi;

3. Kattalar va yoshlar o‘rtasida psixologik qarama-qarshiliklar mavjudligi.

Bundan tashqari yoshlar orasida tarqalayotgan ekstremizm va terrorizm holatlarini oldini olish maqsadida ularga boshlang‘ich ta‘limdan boshlab dastlabki tushunchalar berib bormog‘imiz lozim. Misol qilib, “terrorizm”, “ekstremizm”, “fundamentalizm”, “radikalizm” va shu kabi tushunchalarni tushuntirish va bu holatlar hozirda yoshlar orasida teng tarqalayotganligini tushuntirishimiz lozim hisoblanadi.

Endi terrorizm va ekstremizmga qarshi kurshishda xalqaro tajribalar bilan tanishadigan bo‘lsak, 1928-yilda Ismoilিয়া shahrida tashkil topgan “Musulmon birodarlar” diniy-siyosiy tashkiloti tuzilgan Misr davlatining bugungi kunda qay tariqa ushbu qabih ishlarga qarshi kurashayotganligi bilan tanishadigan bo‘lsak. Ushbu davlatda asosan rasmiy islom diniy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda amalga oshirmoqda. Bunda Misr o‘z davlatni boshqarishda musulmoncha imidjini saqlagan holda ya‘ni barcha davlat dasturlarni islom institutlari, xususan Misr muftiysi “Al-Azhar” va Vaqf ishlari vazirligi bilan birgalikda amalga oshirishida o‘z aksini topmoqda va bu usul orqali boshqarish tartibini sal bo‘lsa ham qo‘lga olib ko‘payishini oldini olmoqda.

O‘zbekistonning olib borayotgan terrorizmga qarshi choralari Markaziy Osiyo va boshqa davlatlar uchun model sifatida xizmat qilmoqda. Yoshlarning huquqiy va diniy bilimni kuchaytirish orqali ular orasida ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini

<sup>1</sup>Submadaniyat (lotincha: *sub*, „ost“ va *madaniyat*) jamiyatshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik atamasi bo‘lib, jamiyat madaniyatining keskin farqlanuvchi bir qismini anglatadi. Submadaniyat ichida o‘ziga xos kiyinish, *jargon*, hatti-harakat va boshqa madaniy normalar bo‘lishi mumkin.

olishga asoslangan radikallashuvga qarshi kurashning o'zbek modeli o'z samarasini bermoqda. O'zbek modeli qonunlarga hurmatni rivojlantirish hamda ruhiy va diniy ta'lim orqali xalqning, ayniqsa yoshlarning "qalbi va ongi uchun kurashga" e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, biz ekstremistik g'oyalar ta'sirida qolgan va o'z xatosini anglab yetganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, ularni normal hayotga qaytarish ustida muntazam ravishda ishlaymiz. Shuningdek yoshlar ongini sog'lom muhitni uyg'otish sog'lom mafkura egasi qilish va ularni o'zlari mustaqil to'g'ri yo'lni tanlay oladigan darajaga yetgunlariga qadar nazorat ostida ushlab kerak.

Bu xavfli illatlardan soqit bo'lish uchun biz qanday yo'lni tanlamog'imiz kerak. Qanday chora-tadbirlar bilan bu xatarli botqoqdan zararsiz o'tib olish mumkin? Buning uchun biz, avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko'rsatgan, yo'l biz uchun katta namunadir. Ularning BMT ning 72 sessiyasida ilgari surilgan g'oyalari «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyasini ahamiyati beqiyosdir. Ma'rifat orqali inson ilmga va tafakkuri rivojlanadi, ilm va tafakkurli inson albatta diniy ekstrimizm va terrorizmning maqsadini va oldiga qo'ygan manfaatlarini yaxshi tushunadi va unga qarshi ilm tafakkur orqali kurashadi. Xalqimizda ma'naviy hayotida bo'shliq, boshqalar salbiy chirkin g'oyalarini singdira olishlari mumkin bo'lgan hollardan o'zimizni saqlashimiz kerakligi haqida bizni ogohlikka chaqirdi. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar Respublikamiz Prezidenti. Bu masalaning kishining doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin. Bugungi kunda ma'naviy tahdidlarning eng ko'p qamrovga ega bo'lgani ommaviy axborot vositalari tizimidir. Davlatlar, mamlakatlar boshqa hududlardan o'z chegaralari bilan ajratilgan va mustahkamlangan, lekin axborot ko'lami shunchalik kengki, u hech qanday chegara bilmaydi.

Hozirgi ochiq axborot tizimi davrida, avvalo, yoshlarda har qanday axborotga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish, chetdan kelayotgan turli xil axborotlarni qabul qilishda analiz-sintez qila olish qobiliyatini shakllantirish lozim. Chunki hozirda qurolli hujumlardan ko'ra ma'naviy hujumlar xavfli tus olib bormoqda, bunda esa axborot ularga juda qo'l keluvchi vositaga aylandi. Eng axborot tez o'z ta'sirini o'tkazuvchi qatlam yoshlar, yoshlar esa yurtimiz kelajagi. Ularda bunday illatlarni oldini olish uchun yurtimizda juda ko'plab ijobiy targ'ibotlar amalga oshirilmoqda. Joylarda, ilm dargohlarida din bilimdonlari tomonidan diniy terrorizm va ekstrimizm balosi nima ekani va u qanday ta'sir kuchiga ega ekani haqida ma'ruzalar, tadbirlar uyushtirildi. Dindan niqob sifatida foydalana olmasliklari uchun, birinchi o'rinda, xalqning diniy savodxonligini oshirish, din nimaligi, uning mazmun mohiyatini yaxshi anglab yetish kerak. Har birimiz atrofimizda sodir bo'layotgan voqeliklardan xabardor

bo‘lishimiz, beparvolik, bepisandlik bilan o‘zimizni chohga itarishdan saqlanish, insonlarni ogohlikka da‘vat qilib yashashimiz kerakligi haqida tushunchalar berilib borilmoqda.

Olib borilayotgan ishlarning yaqqol misoli sifatida xalqaro iqtisodiyot va tinchlik institutining an‘anaviy “Terrorizm global indeksi” ko‘rsatkichlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2016-2020-yillarda terrorizm xavfi kam yoki juda past davlatlar qatoriga kiritilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma‘naviyat va ma‘rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020-yil 29-yanvar.
2. Sh.M.Mirziyoyevni O‘zLDPning X qurultoyida so‘zlagan nutqi. <https://uznews.uz/posts/2030-iilgaca-savkat-mirziyoev>
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O‘zbekiston, 1997
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. –T.:Ma‘naviyat, 2008.
5. [www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org)